

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026 MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI	10
Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА	19
Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишерович	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	28
Габбарова Ильмира Володиевна	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH	34
Amirov Shavkat Rahmatullayevich	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	41
Усманова Азиза Баходировна	
PEREGONDAGI HARAKATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQUISH	46
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	55
Alimova Dilafro'z Tohir qizii	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	61
Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR	67
Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	75
Rajapov Xayrulla Bekdurdievich, Sharipova Lobar Umrbek qizi	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH	82
Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI	90
Muxtorova Shaxlo Farxodovna	



KORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI

Muxtorova Shaxlo Farxodovna

Mustaqil tadqiqotchi

E-mail: shakhlo2000@icloud.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada korxonalarda korporativ boshqaruv tizimining nazariy asoslari, amaliy muammolari hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida an'anaviy va innovatsion boshqaruv modellari qiyosiy jihatdan o'rganilib, ularning samaradorlikka ta'siri baholandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish, ESG tamoyillarini joriy etish hamda boshqaruv shaffofligini oshirish korxonalar raqobatbardoshligini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Kalit so'zlar: korporativ boshqaruv, korxonalar, agentlik nazariyasi, raqamlashtirish, menejment, shaffoflik.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations, practical problems, and modern development trends of the corporate governance system in enterprises. During the study, traditional and innovative management models were comparatively examined, and their impact on efficiency was assessed. The results indicate that digitalization, the implementation of ESG principles, and increasing management transparency significantly enhance the competitiveness of enterprises.

Keywords: corporate governance, enterprise, agency theory, digitalization, management, transparency.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы, практические проблемы и современные тенденции развития системы корпоративного управления на предприятиях. В ходе исследования были сравнительно изучены традиционные и инновационные модели управления, а также оценено их влияние на эффективность. Результаты показывают, что цифровизация, внедрение принципов ESG и повышение прозрачности управления значительно усиливают конкурентоспособность предприятий.

Ключевые слова: корпоративное управление, предприятие, теория агентских отношений, цифровизация, управление, прозрачность.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan korporativ boshqaruv tizimining qay darajada rivojlanganiga bog'liq. Korporativ boshqaruv — aksiyadorlar, menejerlar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi mexanizmlar majmui bo'lib, u korxonaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Global iqtisodiyot sharoitida korxonalar samaradorligi tobora ko'proq korporativ boshqaruv sifati bilan belgilanmoqda. Kuchli boshqaruv tizimi investitsiyalarni jalb qilish, risklarni kamaytirish hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Xalqaro integratsiya, kapital bozorlarining rivojlanishi va raqamli transformatsiya sharoitida korporativ boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish zaruratga aylandi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda ushbu jarayon institutsional muhit bilan chambarchas bog'liqdir.

Korporativ boshqaruv nazariyasi bir nechta ilmiy yondashuvlarga asoslanadi:

- agentlik nazariyasi — menejerlar va mulkdorlar o'rtasidagi manfaatlar ziddiyatini o'rganadi;
- stakeholder nazariyasi — barcha manfaatdor tomonlarning manfaatlarini hisobga oladi;
- institutsional nazariya — tashqi muhit va qoidalar ta'sirini tahlil qiladi.

Xalqaro tashkilotlar, xususan, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar korporativ boshqaruvning global standartlarini belgilab beradi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ boshqaruv masalasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda O'zbekiston olimlari tomonidan ham ushbu yo'nalishda sezilarli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Xalqaro nazariy asoslar, xususan, agentlik nazariyasi Michael Jensen va William Meckling tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, menejerlar hamda aksiyadorlar o'rtasidagi manfaatlar ziddiyatini tushuntiradi. Mazkur yondashuv O'zbekiston korxonalarini faoliyatida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruvni rivojlantirishning huquqiy asoslari ham shakllangan. Xususan, "Korporativ boshqaruv kodeksi" milliy korxonalar faoliyatida shaffoflik, hisobdorlik va samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan, davlat aktivlarini xususiylashtirish va kapital bozorlarini rivojlantirish siyosati korporativ boshqaruv tizimiga yangi talablarni qo'ymoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda korporativ boshqaruv tizimi hali to'liq shakllanmagan bo'lib, quyidagi muammolar mavjud: mustaqil direktorlar institutining yetarli darajada rivojlanmaganligi, korporativ madaniyatning pastligi, axborot ochiqqligining yetishmasligi hamda raqamli boshqaruv vositalarining sust joriy etilishi. Shu bilan birga, xalqaro tajriba va milliy islohotlar uyg'unligi korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish uchun mustahkam asos yaratmoqda.

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda korxonalarda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalari kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi bir nechta o'zaro bog'liq usullarni o'z ichiga oladi.

Birinchiidan, tizimli yondashuv qo'llanildi. Ushbu yondashuv orqali korporativ boshqaruv tizimi yagona mexanizm sifatida ko'rib chiqilib, uning tarkibiy elementlari — aksiyadorlar, direktorlar kengashi, menejment va nazorat organlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar tahlil qilindi.

Ikkinchiidan, qiyosiy tahlil usuli asosida an'anaviy va zamonaviy boshqaruv modellari o'rganildi. Xususan, rivojlangan davlatlar tajribasi hamda O'zbekiston korxonalarini amaliyoti o'zaro taqqoslandi. Bu orqali mavjud muammolar va rivojlanish imkoniyatlari aniqlashtirildi.

Uchinchiidan, iqtisodiy-statistik tahlil usuli yordamida korporativ boshqaruv samaradorligining moliyaviy natijalarga ta'siri o'rganildi. Bunda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanildi:

- rentabellik ko'rsatkichlari (ROA, ROE);
- investitsiya jozibadorligi;
- korxonaga qiymati (market value).

To'rtinchiidan, empirik kuzatuv hamda ikkilamchi ma'lumotlar tahlili amalga oshirildi. Tadqiqot davomida xalqaro tashkilotlar hisobotlari, jumladan Organisation for Economic Co-operation and Development va World Bank ma'lumotlaridan foydalanildi.

Beshinchiidan, kontent-tahlil usuli orqali ilmiy maqolalar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda korporativ boshqaruv kodekslari o'rganildi. Ushbu usul yordamida asosiy tendensiyalar va nazariy qarashlar tizimlashtirildi.

Shuningdek, tadqiqotda institutsional tahlil usuli qo'llanilib, korporativ boshqaruvga ta'sir etuvchi tashqi omillar — qonunchilik, davlat siyosati va nazorat mexanizmlari baholandi.

Metodologiyaning muhim jihatlaridan biri sifatida interdisiplinar yondashuv tanlandi. Ya'ni iqtisodiyot, menejment va moliya fanlari kesishmasida mavjud muammolar kompleks tarzda o'rganildi.

Natijada qo'llanilgan metodlar majmuasi quyidagi imkoniyatlarni yaratdi:

- korporativ boshqaruvning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish;
- amaliy muammolarni aniqlash;
- innovatsion yechimlarni ishlab chiqish;
- O'zbekiston sharoitiga mos ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalarda korporativ boshqaruvning mohiyati va ahamiyati quyidagi jihatlar orqali namoyon bo'ladi:

- strategik qarorlar samaradorligini oshirish;
- resurslardan oqilona foydalanish;
- investorlar ishonchini mustahkamlash;
- risklarni samarali boshqarish.



Samarali boshqaruv tizimi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy natijalarning yuqori bo'lishi ko'plab ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan.

An'anaviy korporativ boshqaruv modeli

An'anaviy korporativ boshqaruv modeli quyidagi xususiyatlarga ega:

- markazlashgan boshqaruv;
- qat'iy ierarxiya;
- qaror qabul qilish jarayonining sustligi;
- axborot almashinuvining yopiq tizimi.

Mazkur model sanoat iqtisodiyoti davrida yuqori samaradorlikni ta'minlagan bo'lib, hozirgi dinamik iqtisodiy muhitda uni zamonaviy boshqaruv yondashuvlari bilan uyg'unlashtirish orqali yanada takomillashtirish imkoniyati mavjud.

Innovatsion korporativ boshqaruv yondashuvlari

Zamonaviy korxonalarda quyidagi yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda:

- Raqamli boshqaruv
 - ERP va CRM tizimlarini joriy etish;
- Big Data texnologiyalaridan foydalanish;
- sun'iy intellekt asosidagi boshqaruv vositalarini qo'llash.
 - ESG tamoyillari
 - ekologik mas'uliyatni kuchaytirish;
- ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash;
- korporativ etikani rivojlantirish.
 - Moslashuvchan boshqaruv (Agile)
 - tezkor qaror qabul qilish;
- jamoaviy ishlash samaradorligini oshirish.
 - Shaffoflik va hisobdorlik
 - ochiq hisobot tizimini rivojlantirish;
- audit tizimini kuchaytirish.

1-jadval

Korxonalarda korporativ boshqaruvni takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlari va institutsional omillarining qiyosiy tahlili

Zamonaviy yondashuvlar	Institutsional omillar
Korporativ boshqaruvni samarali tashkil etish uchun yangi usul va modellardan foydalanish	Korxonada faoliyatiga tashqi va ichki muhit orqali ta'sir qiluvchi qoidalar, normalar va institutlar
Shaffoflik, samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirish	Barqarorlikni ta'minlash va boshqaruv tizimini tartibga solish
Raqamlashtirish, ESG tamoyillari, risk-menejment va innovatsion boshqaruv	Qonunchilik, davlat siyosati, aksiyadorlik munosabatlari va nazorat organlari
Amaliy va innovatsion xarakterga ega	Normativ va tartibga soluvchi xarakterga ega
Bozor talablariga tez moslashadi	Qonun va qoidalarga bog'liq holda nisbatan sekin moslashadi
Asosan korxonada ichki boshqaruviga yo'naltirilgan	Korxonada va tashqi muhit o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi
Samaradorlik oshadi, boshqaruv sifati yaxshilanadi va investitsiya jozibadorligi ortadi	Huquqiy himoya kuchayadi va tartib-intizom ta'minlanadi
Joriy etish xarajatlari yuqori bo'lib, malakali kadrlarni talab etadi	Byurokratiya va ortiqcha tartibga solish xavfi mavjud
Korporativ boshqaruv kodekslari, mustaqil direktorlar instituti va audit qo'mitalari	Milliy qonunchilik, fond bozori qoidalari va davlat nazorati
Tezkor va bevosita natija beradi	Uzoq muddatli va tizimli ta'sir ko'rsatadi

1-jadval tahlillaridan ko'rish mumkinki, keltirilgan har bir yondashuv va institutsional omil korxonalarda korporativ boshqaruvni takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy yondashuvlar, jumladan, Agile boshqaruv va raqamli transformatsiya, boshqaruv jarayonlarining tezkorligi hamda samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Institutsional omillar esa qonunchilik, ijtimoiy institutlar va bozor raqobati kabi tashqi muhit omillari sifatida korxonada strategiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.



Mazkur yondashuvlar va omillar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, korxonalarining barqaror rivojlanishi hamda raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli har bir korxonada o'z strategik maqsadlariga erishishda ushbu yondashuvlarning afzalliklari va cheklovlarini inobatga olgan holda ulardan samarali foydalanishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korporativ boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish korxonalar samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Innovatsion yondashuvlar, xususan, raqamlashtirish hamda ESG tamoyillarini joriy etish orqali korxonalar global bozordagi raqobatbardoshligini yanada mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi. O'zbekiston korxonalarida korporativ madaniyatni rivojlantirish, mustaqil direktorlar instituti faoliyatini takomillashtirish, boshqaruv shaffofligini oshirish hamda raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha keng imkoniyatlar mavjud. Mazkur yo'nalishlarda korporativ boshqaruv kodekslarini takomillashtirish, mustaqil direktorlar rolini kuchaytirish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish, ESG standartlarini joriy etish hamda xalqaro tajribani milliy amaliyotga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi korxonalarda boshqaruv samaradorligini oshirish, investitsiya jozibadorligini kuchaytirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. OECD. *Principles of Corporate Governance*.
2. World Bank. *Corporate Governance Guidelines*.
3. Tricker B. *Corporate Governance: Principles, Policies and Practices*.
4. Monks R., Minow N. *Corporate Governance*.
5. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz>
6. Taylor Nicole Rogers. "Bank of America Finally Sees Mobile Deposits Surpass In-Person Transactions" // *The Street*. – 2018-yil, 16-iyul.
7. Khudoykulov H. A., Sherov A. B. "Digital Economy Development in Corporate Governance of Joint Stock Company" // *Iqtisodiyot va biznes: nazariya va amaliyot*. – 2021. – № 3–2. – B. 217–219.
8. Thabani Nyoni va boshqalar. "The Impact of Digital Banking on the Performance of Commercial Banks in Zimbabwe" // *IJARIE*. – ISSN(O)-2395–4396. – Vol. 6. – Issue 6. – 2020.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100